



FAYNBERGNING IJODIY KECHINMALARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada rusiyzabon o'zbek shoiri, yozuvchisi va dramaturgi Aleksandr Faynbergning ijodiy ishlaridagi, asarlaridagi kechinmalar, ulardagi falsafiylik va teran fikrlarining bugungi kundagi ahamiyatini qisqacha tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: O'zbekiston xalq shoiri, hayotiylik, Pushkin medali.

Kirish. Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkentda tug'ilgan. Ko'plab asarlari orqali xalqqa tanilgan iste'dodli shoir 7 yillik maktabda o'qigan va keyinchalik texnikumga o'qishga kirgan. O'z iste'dodi, qiziqishi va bilimi bilan tengdoshlaridan ajralib turadigan shoir Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) da tahsil olgan.

Aleksandr Faynbergning she'rlari mazmun va mohiyati jihatidan ko'plab asarlardan ajralib turadi va shuning uchun ham hanuz o'z qiymatini yo'qotmagan. Uning qisqa satrlar orqali ko'plab ma'no ifodalay olish qobiliyati insonlarda haligacha katta qiziqish uyg'otadi va she'rlaridagi falsafiylik hozirda boshqa she'rlar uchun ham ilhom manbayi bo'lib xizmat qiladi, desak adashmagan bo'lamiz. U hayoti davomida ko'plab durdona asarlar yaratdi: o'n ikki jildlik kitob, yigirmadan ortiq animatsion film, to'rtta to'liq metrajli badiiy film, yettita badiiy filmlar ssenariysi va 18ta animatsion film ssenariysi...

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning bu xizmatlari bekor ketmadi. U Rossiyada Pushkin medali bilan, O'zbekistonda O'zbekiston xalq shoiri unvonini bilan taqdirlangan. Nasriy asarlari haligacha kitobxonlar orasida katta qiziqish uyg'otuvchi adib Aleksandr Faynberg 2009-yil 14-oktabrda Toshkentda vafot etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Faynberg, A. A. (1939–2009). Poetic works and translations. Tashkent; Moscow; Saint Petersburg.
2. Interonconf.org. (2023). Aleksandr Faynbergning she'rlarida hayot falsafasi. Retrieved from <https://interonconf.org/>
3. Uzbekistan State World Languages University. (n.d.). Aleksandr Faynberg: Life and creative activity. Retrieved from <https://uzswlu.uz/>



4. Ziyouz.com. (n.d.). Aleksandr Faynberg (1939–2009). Retrieved from <https://n.ziyouz.com/>